

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIJ TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIJ TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: Nigora1996@gmail.com

Tel: +998900003322

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotda pedagogik hamkorlikning mohiyati, tamoyillari va funksional imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning metodik kompetensiyalar shakllanishiga ta'siri aniqlanadi. Shuningdek, metodik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, ularni rivojlantirish mexanizmlari hamda samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik hamkorlik, metodik kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim jarayoni.

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCES OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL COOPERATION

Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi

Independent researcher at Fergana State University

Annotation. This article is devoted to highlighting the scientific-theoretical foundations of developing methodological competencies of future primary education teachers on the basis of pedagogical cooperation. The study analyzes the essence, principles and functional capabilities of pedagogical cooperation and determines their impact on the formation of methodological competencies. Also, the structural components of methodological competence, mechanisms for their development and pedagogical conditions ensuring their effectiveness are scientifically substantiated. The results of the study are significant in that they serve to improve the process of training future primary education teachers.

Keywords: primary education, future teacher, pedagogical cooperation, methodological competence, professional training, educational process.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n13>

Zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida pedagogik jarayonning samaradorligi faqat bilimlarni uzatish bilan cheklanib qolmay, balki o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida samarali, teng huquqli va hamkorlikka asoslangan pedagogik munosabatlarning shakllanishiga ham bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik hamkorlikni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida metodik bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish, shuningdek, kasbiy tafakkur va reflektiv faoliyatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy shakllanish jarayoniga innovatsion

yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, bo'lajak pedagoglarning metodik kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilovchi muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur holatlar pedagogik hamkorlik asosida metodik kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va asoslab berishni zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb va muhim masala sifatida belgilaydi.

Pedagogik hamkorlik va metodik kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi xorijiy va milliy pedagogik tadqiqotlarda ko'plab olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Lev Vygotskiy pedagogik hamkorlikni ta'lim jarayonidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhim shakli sifatida talqin qilib, bilish jarayoni shaxslararo muloqot orqali amalga oshirishini ilmiy jihatdan asoslagan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi konsepsiyasi hamkorlikka asoslangan o'qitish va o'rganish jarayonining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Ta'lim oluvchi markazli ta'lim konsepsiyasi doirasida Karl Rojers pedagogik hamkorlikni ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida e'tirof etib, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ishonchga asoslangan hamkorlik kasbiy kompetensiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Devid Kolb tajribaviy ta'lim nazariyasida hamkorlikka asoslangan faoliyatlarning metodik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab, uning modeli bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Benjamin Blum ta'limiy maqsadlarni kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarga tasniflash orqali metodik kompetensiyani kompleks rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Pedagogik hamkorlik ushbu sohalarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Jon Dyui ta'limni tajriba va faoliyat orqali amalga oshadigan jarayon sifatida izohlab, hamkorlikka asoslangan ta'lim mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Uning g'oyalari metodik kompetensiyani shakllantirishda faol ta'lim yondashuvlarining ahamiyatini ochib beradi.

Li Shulman o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini "pedagogik mazmuniy bilim" (pedagogical content knowledge) tushunchasi orqali izohlab, fan mazmuni bilan uni o'qitish metodlari integratsiyasining muhimligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini baholash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Konstruktivistik ta'lim nazariyasi doirasida Jerom Bruner hamkorlikda o'qitishni bilimlarni faol konstruksiyalash vositasi sifatida baholab, pedagogik hamkorlik o'quvchilarda chuqur metodik tafakkurni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Faoliyat nazariyasi doirasida Aleksey Leontyev bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi ijtimoiy faoliyat va hamkorlik jarayonida yuz berishini ta'kidlab, metodik kompetensiyani rivojlantirishda tizimli-faoliyat yondashuvining nazariy asoslarini belgilab beradi.

Pyotr Galperin aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasida pedagogik hamkorlikni o'quv faoliyatini samarali tashkil etuvchi muhim omil sifatida ko'rsatadi. Uning qarashlari metodik tayyorgarlikni tizimli rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Nihoyat, Devid Jonson hamkorlikda o'qitish nazariyasida ta'lim jarayoni samaradorligi ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat va refleksiya orqali ta'minlanishini ilmiy asoslab beradi. Ushbu yondashuv pedagogik hamkorlikning amaliy mexanizmlarini belgilab beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik hamkorlik va metodik kompetensiya tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning integratsiyasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari ushbu tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi integrativ kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. U fan mazmunini samarali yetkazish uchun mos o'qitish metodlarini tanlash va qo'llash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Pedagogik hamkorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni metodik kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasini ta'minlasa, tizimli-faoliyat yondashuvi amaliy faoliyatni faollashtiradi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa bo'lajak o'qituvchilarning individual imkoniyatlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tenglik, o'zaro hurmat, mas'uliyat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik yondashuv sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvda o'qituvchi va talabaning an'anaviy bilim beruvchi va bilim oluvchi sifatidagi rollari bilan bir qatorda, ularning muammolarni birgalikda hal etishda faol hamkorlar va teng subyektlar sifatida ishtirok etishi nazarda tutiladi. Natijada, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv hamda pedagogik faoliyatni reflektiv baholash ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Ilmiy-nazariy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik hamkorlik bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida motivatsion, kognitiv va amaliy komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday integrativ yondashuv ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faolligini oshiradi, mashg'ulotlar mazmunini boyitadi hamda ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini yuksaltiradi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi pedagogik hamkorlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga yo'naltirilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli-faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etib, ular metodik kompetensiyani murakkab, ko'p komponentli pedagogik hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik hamkorlikning metodik kompetensiyalar rivojiga ta'sirini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi. Shuningdek, pedagogik hamkorlik asosida metodik kompetensiyalarni rivojlantirish modelini loyihalash uchun metodologik asos yaratishda modellashtirish metodidan foydalanildi.

Tadqiqot metodikasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, pedagogik hamkorlik mexanizmlarini amaliyotga joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik hamkorlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimi talablariga mos, ilmiy va metodik jihatdan asoslangan pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish, metodik faoliyatga ongli va ijodiy munosabatni shakllantirish hamda ta'lim sifati va pedagogik amaliyot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, pp. 84–91.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan Publishing Company, pp. 67–75.
3. Shulman, L.S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. *Educational Researcher*, 15(2), pp. 4–14.
4. Bruner, J.S. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Harvard University Press, pp. 72–85.
5. Rogers, C.R. (1969). *Freedom to Learn*. Columbus, OH: Charles E. Merrill Publishing Company, pp. 157–169.
6. Kolb, D.A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, pp. 38–44.
7. Bloom, B.S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longmans, Green and Company, pp. 18–24.
8. Leontiev, A.N. (1978). *Activity, Consciousness, and Personality*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, pp. 62–70.
9. Galperin, P.Y. (1969). Stages in the development of mental acts. In: *A Handbook of Contemporary Soviet Psychology*. New York: Basic Books, pp. 249–273.
10. Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (1999). *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning*. Boston: Allyn and Bacon, pp. 34–41.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.